

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim
vazirligi
Urganch Davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
Mehnat ta`limi yo`nalishi
143-guruh talabasi Madrimov Elyoring
“Kasb-hunar o`rganish jarayonida «Ustoz-shogird
odobi» an`analaridan foydalanishning shakli, vosita va
metodlari” mavzusida yozgan**

REFERATI

Qabul qildi:

**“ Mehnat talimi “kafedrasi katta
o`qtuvchisi, Tojiyev J.K.**

Urganch-2017

Reja:

1. O'quvchilarni «Ustoz-shogird odobi» an'analari asosida shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodining o'rni
2. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini «Ustoz-shogird odobi» an'analari asosida shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish tuzilmasi
3. Zanjira va uning turlari mavzusini o'qitish da "Ustoz-shogird odobi" an'alaridan foydalanish

O'zbekiston Respublikasi porloq istiqbol sari bosqichma-bosqich dadil qadam tashlab borayotgan bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash juda ham muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. YUrtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimovning bevosita tashabbusi bilan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va ma'naviyat tarbiyasi masalalarida ko'plab tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, Prezidentimizning 1996 yil 9 sentyabrda qabul qilingan «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda jiddiy burilish bo'ldi, deyishimiz mumkin.

Tabiiyki, jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiya zaminida Qur'oni Karim, Hadisi SHariflar va SHarq G'arbda qomusiy olimlar sifatida shuhrat qozongan buyuk mutafakkirlarning ma'naviy merosi yotadi. Zero, dunyo xalqlari madaniyati tarixida hech qaysi millat bizlardek boy ma'naviyat yaratgan emas. YAqin vaqtlargacha «barcha fanlarning asosini yunonlar yaratgan»,- deyish, ilmiy adabiyotlarda odat tusiga kirgan edi. Aslida, yunonlar ilm-fanning poydevorini yaratganlar. SHaxsning har tomonlama komil inson bo'lib etishishini ta'minlashda ma'rifat g'oyasi etakchi ekanligini qadimiy ajdodlar, ya'ni zardo'shtiylarning maqaddas kitobi bo'lmish «Oqiston»da («Avesto») keltirilgan tarixan inson ongi, ilmi va madaniyatini oshirishga qaratilgan fikrlar tasdiqlaydi. Darhaqiqat, eng qadimgi davr va o'rta asr SHarq ma'rifiy fikr taraqqiyotida ma'rifat etakchi g'oyalardan biri bo'lib, u ma'naviy-ruhiy jarayon sifatida islom dini aqidalari bilan uyg'unlashib, insonni ma'naviy-axloqiy barkamollikka undadi va mutafakkirlarning dunyoqarashlariga ham ta'sir ko'rsatdi.

Bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustda bo'lib o'tgan IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi vazifalarini amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib hisoblandi. YOshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish hamda asrlar davomida to'plangan ma'naviy xazinalarni

ularga ta'lim va tarbiya jarayonida berish lozim. Ajdodlar qoldirgan ma'naviy xazinalardan biri – bu xalq og'zaki ijodidir.

O'quvchilarni «Ustoz-shogird odobi» an'analari asosida shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosdir. Kasb-hunar kollejlari «Ustoz-shogird odobi» an'alarini o'quvchilar ongiga singdirish uchun xalq og'zaki ijodi (rivoyat, maqol, hikmat, hikoya, doston kabi) namunalari foydalaniladi. Mazkur foydalanish, albatta, dars hamda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ta'lim vosita (milliy va umuminsoniy qadriyatlar, oila, mahalla, o'quv-tarbiya jarayoni kabi) lari, shakl (*tashkiliy shaklga ko'ra*; yakka holda, juftlikda, guruhlarda, guruhlararo; *mashg'ulot o'tkazish joyiga ko'ra*; o'quv xonasida, o'quv xonasidan tashqarida; *mashg'ulotning o'tkazilish vaqtiga ko'ra*; qo'shma, qo'ng'iroqsiz) lari va metod (o'git, nasihat, ma'ruza, tushuntirish kabi) laridan unumli foydalanilsagina o'quvchilar etuk, shakllangan hamda talablarga javob beradigan mukammal kichik mutaxassis bo'lib etishadilar (5-chizma).

Xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri – hayot haqiqatidan xabar beruvchi hayoliy *afsonalardir*. Ular kishilarni kelajakka ishonch, insonlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Rivoyatlar esa, mavjud hayotiy ma'lumotlarga tayangan holda, to'qimalar vositasida insoniy qadriyatlar, insonning ezgu, orzu-umidlari, armonlari, quvonchlari, g'am-g'ussalari, ehtiroslarini aks ettiradi. Rivoyatlar negizida tarixiy shaxslar hayoti, faoliyati, ma'naviy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar va turar joylarni o'rganish bilan bog'liq faktlar yotadi.

Qanday janrda bo'lishidan qat'i nazar, xalq ertaklari majoziy xoh sehrli, xoh maishiy bo'lmasin hammasida yovuzlikdan yaxshilikning ustuvorligi, inson ezgulikka intilishi haqida so'z boradi. Hamma ertaklarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, insonparvarlik sotqinlikka, razolatga qarama-qarshi o'laroq doimo g'alaba qiladi.


Dostonlar esa, xalq ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan og'zaki ijod janrlaridan biri hisoblanadi. Unda musiqa va she'riyat uyg'unlashgan. Dostonlarning g'oyaviy va ma'rifiy ahamiyati shundaki, ularda yuksak go'zallikka va baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li maqsadlarga qat'iy intilish, sabr-chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan iboratdir degan g'oya ilgari suriladi.

Latifalar. Uning zaminida tarixiy voqealar, maishiy hodisalar yotadi. Ziyraklik, o‘tkir, hozirjavoblik hajm jihatidan ixcham va mazmunan boy bo‘ladi. Latifalarning asosiy qahramoni Nasriddin qiyofasi orqali nodonlik, beaqlilik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, munofiqlik, ochko‘zlik, ayyorlik, ishyoqmaslik kabi insoniy ma’naviyatga zid illatlar qoralanadi, mehmondo‘zlik, himmat, mehr-oqibat, sahiylik, ilmiylik, insonparvarlik kabi yuksak qadriyatlar ulug‘lanadi.

Askiyaning negizida milliy, axloqiy odob mezoniga zid aldamchilik, ishonmaslik, ikkiyuzlamachilik, axloqsizlik kabi sifatlarga qarshi mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, ma’naviy poklik kabi qadriyatlar, to‘y marosimlari, qo‘ni-qo‘shnichilik udumlari va boshqalar targ‘ib etiladi, ya’ni:

- xalq og‘zaki ijodining mazmuni milliy asosga ega va u ta’lim-tarbiyaning pirovard maqsadlariga xizmat qiladi;

- xalq og‘zaki ijodi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Hissiy tarbiya jarayonini aqliy tarbiya jarayonidan ajratilgan holda tasavvur etib bo‘l-



5-chizma

**Kasb-hunar kollej o'quvchilarini «Ustoz-shogird odobi» an'analari
asosida shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodi
namunalaridan foydalanish tuzilmasi**

maydi. Badiiy estetik manbalar hissiyot orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir;

- xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ustoz-shogird odobi an'anasi bo'lib, qachonlardir xalq tomonidan ehtiyoj asosida yaratilgan. Hayot sinovidan o'tgan folklor asarlarini ustozdan shogird ajdoddan-avlod, ota-onadan farzand og'zaki o'zlashtirgan, kelgusi avlodga etkazgan va shu yo'l bilan tarbiyachi orqali davomiylik, izchil tamoyilga asos solingan;

- xalq ogʻzaki ijodida asos solingan taʼlim-tarbiya usullari: buyruq, oʻgit, nasihat, namuna, oʻrnak, murojaat, iltijo, kinoya, piching, kesatiq, yumshoq, zahar hamda yumoristik tanqid, maʼqullash, oldinga surilgan tarbiyaviy gʻoyaning taʼsir kuchini oshirishga qaratilgan.

Oʻquvchilarning maʼnaviyatini shakllantirish uchun SHarqda bir necha asrlar davomida saqlanib kelingan ajoyib maʼrifiy boyliklar borki, bularga xalq ogʻzaki ijodiyoti asarlari kiradi.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiyotining oʻziga xos janrlaridan biri boʻlgan «*rivoyat*» ajdodlar tomonidan asrlar davomida yaratilib, tildan tilga, dildan dilga oʻtib, muayyan badiiy silsila holatiga kelgan tafakkur moʻjizalaridan biri boʻlib sanaladi.

Rivoyat arabcha «hikoya qilmoq» degan maʼnoni bildirib, xalq ogʻzaki ijodiyotining nasriy turi boʻlib, yaʼni voqeylikni hayotiy, baʼzan uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi realistik xarakterga ega. Rivoyatlarning tarixiy shaxslarga bogʻliq boʻlgan va toponim xarakterdagi turlari mavjuddir. Toponim rivoyatlar faktik hodisa, yaʼni shahar, qishloq, qalʼa, saroy, qasr, maqbara va boshqalarning yuzaga kelish sabablari bilan bogʻliq voqealarni hikoya qiladi.

Tarixiy shaxslarga bogʻliq boʻlgan rivoyatlar esa tugal, mukammal, oʻziga xos koʻrinishga ega boʻladi. Masalan, Ibn Sino, Ulugʻbek, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mashrab va boshqalarning hayoti bilan bogʻliq voqea-hodisalarga asoslanadi. Bu rivoyatlar ogʻzaki va yozma koʻrinishda bizga anʼana tarzida etib kelgan. Rivoyatlarning har biri biror maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlsada, oʻziga xos chuqur falsafiy fikrga ega boʻladi.

Hozirda kasb-hunar kollejlarida eng muhim masalalardan biri – bu oʻtilayotgan darslarning samaradorligini yanada oshirish va oʻquvchilarga chuqur bilim, tarbiya berishdan iboratdir. Bu oʻrinda ota-bobolarimizning maʼnaviy merosidan, milliy anʼanalaridan foydalanish, ularni davom ettirish muhim ahamiyatga egadir.

SHunga koʻra, dars jarayonida rivoyatlardan oʻrinli foydalanish ijobiy natijalar beradi. Ular oʻquvchilarni maʼlum bir fanga va sanʼatga boʻlgan qiziqishini oshirishga hamda oʻtilayotgan dars mazmunini tez tushunishga yordam beradi. Darsning qiziqarli boʻlishini taʼminlaydi. Eng muhimi shundaki, ular oʻquvchilarning tarbiyasiga ham ijobiy taʼsir etadi [4].

Darslarda rivoyatlardan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- bir necha rivoyatni bir vaqtda aytib, o'quvchilarni charchatib, zeriktirib qo'ymaslik;
- tanlangan rivoyat o'tilayotgan dars mavzusiga mos bo'lishi;
- uni tushunarli va ifodali tilda hikoya qilib berish yoki o'qitishning ilg'or texnologiyalari asosida tashkil etish;
- rivoyatdan dars jarayonida o'rinli foydalana olish va hokazo.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalarida hunar, ustoz-shogird va boshqalar haqida ajoyib rivoyatlar, hikoyalar, ertaklar, maqollar mavjud. Xalq orasida yaratilgan har bir rivoyat, hikoyat va boshqalar ota-bobolarning hayotiy tajribalari asosida yaratilgan. Ularning bu tajribalari orqali ustozlar yoshlarni tarbiyalab, hunarli va ilimli bo'lishga doimo chaqirib kelganlar. YOshlarni xalq milliy an'analariga suyangan holda tarbiyalash, ularning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Masalan, «SHohi zinda» ansanbli bilan o'quvchilarni tanishtirish uchun u bilan bog'liq bo'lgan rivoyatni aytib o'tish o'rinlidir. Masalan: «Rivoyat qilishlaricha qadim zamonlarda, ya'ni Markaziy Osiyoni arablar bosib olgan davrda, nasroniy diniga mansub bo'lgan kimsalar ularga qarshi jang qilgan emish. SHu janglarning birida arablar kuchsiz bo'lib, kofirlar g'alaba qilishga muyassar bo'libdilaru, bir sarkardani quvib, ana shu hozirgi maqbara o'rnidagi bir xonaga kirgizibdilar. Arablar, ya'ni musulmonlar sarkardasi (shoh) haligi kulba ichiga kirib, Olloh taolodan yolvarib ibodat qilib, qutqarishini so'rab turganida, kofirlar kirib orqasidan qilich bilan boshini chopadilar. SHoh xudoning qudrati bilan erda dumalab ketgan boshini qo'li bilan ushlab, kofirlar tomon yurganida, ularning shu joyda yuraklari yorilib o'libdilar. Bu voqeadan habardor bo'lgan musulmonlar yugurib kelib qarasalarki, shoh g'oyib bo'lgan emish. SHundan keyin kulbai vayronaning nomi «SHohi zinda» deb nomlangan ekan.

SHohi zinda forsiy tilidagi ibora bo'lib, u «SHoh tirik» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu erni Amir Temur o'z avlodining maqbarasiga aylantirgan» [4].

SHuningdek, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rivoyatlarni noan'anaviy o'qitish uslub (seminar-trening) lari asosida ham amalga oshirish mumkin. Masalan, jonli ijro misolida, ya'ni bunda o'quvchilarning o'zlari sahnali ko'rinish orqali mavzuni jonli ijro etadilar. Ularning har biri ishtirokchi vazifasini bajaradilar. Xalqimizda «YUz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal» degan ibora bejizga aytilmagan. 3-ilovada "Ko'priki ustidagi gap" rivoyatining qisqacha mazmuni berilmoqda, ushbu rivoyatdan o'quvchilar o'zlariga kerakli xulosani chiqarib oladilar. SHuningdek, bir juftlik seminar-trening mashg'ulotining o'tkazilish tartibi va mantiqiy tuzilmasi berildi. Ushbu seminar-treningni o'tkazishda o'qituvchi-murabbiydan pedagogik mahorat talab etiladi (3-ilova).

YOshlar ma'naviyatini shakllantirishda SHarqda ko'p asrlar mobaynida saqlangan ajoyib ma'rifiy boyliklar, ulug' olimu fozillarning purhikmat asarlarini, ibratomuz fikrlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, rivoyatlar ham bizni o'tmish bilan bog'lab turadigan vositalardan biri, o'ziga xos «oynai jahon»dir. Rivoyatlarni qayta-qayta mutolaa qilar ekanmiz, ularning ma'no tugunlari tobora echilib boraverishiga iqror bo'lamiz. Nodir pand-nasihatlar esa rivoyatlarning mag'zi sanalib, o'quvchiga ruhiy ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalaydi, falsafiy fikr va ozuqa beradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlaridan biri ganchkorlik hunaridir. Kasb-hunar kollejlariida naqqoshlikka oid olib borilayotgan darslarda «Naqqoshlik san'ati tarixi» deb nomlangan mavzuni o'quvchilarga tushuntirish vaqtida o'zbek tarixiy obidalari, ularning bezagi yuzasidan suhbat o'tkazishda, ular bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir rivoyat, hikoyat, qiziq tarixiy voqealar va boshqalardan aytib o'tish muhim ahamiyatga egadir.

Amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha tashkil etilgan darslarni olib borishda shogird, usta va ustoz haqida quyidagilarni aytib o'tish o'rinlidir. YA'ni, shogird, usta va ustoz nomini olish qiyin. SHarafli nomlarni olish hammaga ham nasib etmagan. Buning uchun talabgorlar ko'p yillar davomida murakkab sinovlardan o'tganlar. Ular qadimdan har bir qilgan ishi uchun boshi bilan javob bergan. CHunonchi, usta degan nomni olish oson emasligi quyidagi rivoyatda o'z aksini topgan: «Bir kishi o'zini usta deb atagani uchun Buxoro amiri qattiq g'azablanibdi.

Ko'plab hunarmandlar orasida bu sharaflı nomga kamdan-kam inson muyassar bo'lgan ekan. G'azablangan amir bu odamni zindonga tashlashni, hunarini ko'rsatib o'zini oqlamaguncha ozod qilmaslikni buyuribdi. Uning hech qanday ish quroli yo'q ekan. Biroq, hamisha yonida olib yuradigan pichog'i bilan bir kechada zindon devoriga shu qadar go'zal naqsh chizilibdiki, bunday naqshlarni faqat ertak yoki tushda ko'rish mumkin edi. U usta degan nomni ana shunday oqlabdi» [4].

Ma'lumki, naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, misgarlik va boshqa shu kabi hunar turlarini yoshlarga o'rgatishda «zanjira» mavzusi bor. U kasb-hunar kollejlari ganch o'ymakorligi bo'yicha o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu mavzu bo'yicha darsni tashkil etish va o'tish metodikasini quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mavzu: Zanjira va uning turlari.

Darsning maqsadi.

1. *Ta'limiy maqsad.* O'quvchilarni zanjira turlarini chizishga va ularni o'yishga o'rgatish.

2. *Tarbiyaviy maqsad.* Zanjira kompozitsiyasini chizish va o'yish orqali, o'quvchilarning mehnat va estetik didini tarbiyalash.

3. *Rivojlantiruvchi maqsad.* Ganch o'yishda o'quvchilarning dastlabki ko'nikma va malakalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mashg'ulotning metodi: suhbat, tushuntirish, ko'rsatish, mashq, klaster, aqliy hujum va boshqa metodlardan foydalanish.

Dars olib borish uchun o'qituvchi uchun kerakli materiallar:

1. Ganch o'ymakorlari usta SHirin Murodov, Mahmud Usmonov, Asror Muhtorov, Ziyodulla Umarov kabi ustalarning ishlaridan foto va chizma namunalar. Zanjiraning me'morchilikda va amaliy bezak san'ati turlarida qo'llanilishi hamda o'quvchilarning ishlari yuzasidan tayyorlangan videofilm.

2. Zanjirani chizish va uni o'yish bosqichlari aks ettirilgan plakatlar. Kasb-hunar kolleji o'quvchilari ishlaridan namunalar.

O'quvchi uchun: albom, qalam, siyohli qalam, oddiy qora qalam, chizg'ich, sirkul, skype va boshqalar.

Fanlararo bog‘liqligi:

1. Geometriya fani bilan bog‘liqligi. Geometrik shakllarni ko‘rish.
2. CHizmachilik fani bilan bog‘liqligi. CHiziqlarni, yoy va aylanalarni teng bo‘laklarga bo‘lish. Berilgan yuzaga zanjira kompozitsiyasini to‘g‘ri joylashtirish.

Darsning borishi: zanjira haqida tushuncha; zanjira turlari; oddiy va murakkab zanjaralar; zanjira kompozitsiyasini chizish; zanjira kompozitsiyasiga mos ganch taxta tayyorlash; siyohli qalamda ganch taxtasiga zanjira chizib, skaypelda o‘yish va unga pardo berish yo‘llari.

Darsni olib borishning metodik ishlanmasi: O‘qituvchi darsni zanjira haqidagi umumiy ma’lumot berishdan boshlaydi. Ma’ruzadan so‘ng o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazadi. Bunda ular zanjira nima? va u qaerda qo‘llanilishi mumkin? degan qator savollarga javob berishadi. Zanjira xalq amaliy bezak san’ati turlari bo‘lmish naqqoshlik, kashtachilik, kandakorlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligida keng tarqalgan. Zanjira haqida ekranda videofilm namoyish etiladi (10-15 minut). O‘quvchilarga zanjira haqida tushuncha berish davomida xalq og‘zaki ijodi namunalari rivoyat, hikoya, maqol, masal, afsona va boshqalardan foydalanish o‘quvchilarni shu darsga qiziqish uyg‘otishda hamda darsni yanada ta’sirchanligini oshirishda yordam beradi. Masalan, shu o‘rinda «CHashmi bulbul zanjira» degan rivoyatni (10-15 minut) aytib o‘tish o‘rinlidir [4]: «O‘tgan zamonda bir podshoning hushro‘y qizi bo‘lgan ekan. U misgar ustaning o‘g‘lini sevib qolibdi. Bu voqea elga ovoza bo‘libdi, podsho darg‘azab bo‘libdida, yigitning otasini zindonga tashlabdi. Yigit esa kunu-tun istirobda yangi naqsh izlabdi. Nihoyat, kumush barkash hoshiyasiga otasini bandi etgan zanjirning tasvirini naqshlabdi. Misgarning o‘g‘li podsho irodasiga shak keltiribdi. Podsho yigitning boshini tanasidan judo etishni buyuribdi. Ana shunda bir donishmand usta yigit naqshlagan barkashni saroyga keltiribdi. «Podshohim», - debdi donishmand, - yosh yigitning bir qoshiq qonidan keching. U zanjir xalqasi ichida bulbulning ko‘zini tasvirlamoqchi bo‘lgan ekan. Lekin yasovullar uni sudrab kelishgan. SHu sababdan bolapaqir bunga ulgurolmay qolgan. U shunday debdiyu, zanjirlar xalqasi orqasiga nuqtalar qo‘yib chiqibdi. Naqshning xuddi bulbulning ko‘ziga o‘xshab qolganini ko‘rgan podsho yigitni ozod etadi». SHu-shu bu naqshni «Zanjiri chashmi bulbul» deydigan bo‘lishibdi.

Ganch o'ymakorligida asosiy naqsh bilan hoshiyani bog'lab turadigan naqsh – bu zanjiradir. Zanjira tuzilishining marakkabligiga qarab oddiy va murakkab bo'lishi misollar orqali ko'rsatilib, uning ahamiyati tushuntiriladi. Zanjira naqshlarning ramkasini o'rab turadi. U ajoyib, sodda bo'lishiga qaramay, geometrik shakllarni o'yganda yorug' va soyalar kishini o'ziga jalb etadi. Zanjira turlari plakatlarda yordamida ko'rsatiladi.

Zanjirani tayyorlashda, asosan ko'zda to'g'ri chamalash, to'g'ri chiziqlarni bir xil o'yish lozimligi o'quvchilarga o'rgatiladi. Katta bo'lmagan ganch taxtani (30X30sm) qo'yib chizish va o'yish, doskada bosqichlari bilan tushuntirib beriladi. O'quvchilar zanjirani oddiysidan boshlab chizishlari va o'yishlari lozim. O'qituvchi ularning ishlarini kuzatadi va namoyish etadi.

Zanjirani bir xil chuqurlikda o'yib, qirralarining bir tekisda chiqishiga erishish kerak. Qanday qilib piramidalar hosil qilinishi ko'rsatiladi. O'yma qirralari o'tkir, qirrali bo'lishi uchun o'quvchilarga individual yordam berib borilishi lozim.

Oddiy zanjira o'yib bo'lingach, murakkab zanjiralar o'yiladi. Amaliy mashg'ulot oxirida o'quvchilar ishlari tahlil qilinib, kamchiliklari ko'rsatiladi.

1-mashq. Zanjirani chizish va uni o'yish.

Texnika: Mavzuni albomga qalam bilan chizish va skalpelda ganchni o'yish.

Xom ashyo: ganch, gips yoki alebastr, qog'oz, suv va boshqalar.

O'lcham: 30X30, 30X40, 40X40 va hokazo.

Bajarish bosqichlari:

1. Zanjira kompozitsiyasini chizish; 2. Zanjira kompozitsiyasi uchun taxtani tayyorlash; 3. Ganch uchun taxta tayyorlash; 4. Zanjira kompozitsiya nusxasini ganch taxta yuzasiga tushurish; 5. Zanjirani o'yish; 6. Pardozlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

Zanjira nima? Zanjiraning qanday turlari mavjud? Xalq amaliy bezak san'atining qaysi turlarida zanjira ishlatiladi? Zanjira qanaqa bosqichlarda chiziladi? Zanjirani o'yishda qanday qoidalarga amal qilinadi? Zanjira kompozitsiyasining qanday terminlari bor? 7. Berilgan zanjirani tahlil qilib bering.

Tayanch tushunchalar: Aylana zanjira – aylana shakldagi zanjira; Raftorsimon naqsh - (sinosoida) to‘lqinsimon shakldagi naqsh turi; Ari zanjira – arining iniga o‘xshash zanjira turi; Izora - xona devorining past qismi izora deyiladi.

Uyga topshiriq: 1. Zanjira kompozitsiyasini chizish. 2. Ganch uchun taxtasini tayyorlash va zanjirani o‘yishni mashq qilish. 3. Zanjirasimon naqsh namunalarini to‘plash. 4. Muzey, metrostansiyalar va zamonaviy binolarga ishlangan zanjira kompozitsiyalaridan nusxa olish.

Xalqimizda gilamdo‘zlik ham keng tarqalgan amaliy bezak san’ati sohalaridandir. Gilamdo‘zlik bilan ota-bobolarimiz qadimdan shug‘ullanganlar. SHu sababli ayrim viloyat, tuman madaniyat uylarida gilamdo‘zlik to‘garaklari mavjud. Gilamdo‘zlik mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga o‘z ishlarini sifatli, ozoda bajarishlari lozimligi uqtiriladi. SHu o‘rinda o‘quvchilarga «Mohir gilamdo‘z usta» deb nomlangan bir rivoyatni aytib berish maqsadga muvofiqdir. «Qadim zamonda bir podshohning to‘shalgan gilami o‘rtasiga o‘t tushib kuyadi. Podshoh darhol gilamni to‘qigan ustani chaqirtirib, gilamning kuygan o‘rnini qisqa muddatda yamashni buyuradi. Usta gilamni uyiga eltib, uni asl holatiga keltirib to‘qiydi. Gilamga harchand sinchiklab qaragan hukmdor va saroy ahli uning kuygan o‘rnini topa olmay, ustadan so‘rashga majbur bo‘lishibdi. Usta gilamning orqa tomonini ag‘darib, ozroq bilinib turgan yamoq o‘rnini ko‘rsatibdi. SHunda podshoh va saroy ahli ustaning san’atiga ofarinlar aytishibdi» [4].

Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, ma’naviy hayotida yuz berayotgan islohotlar, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun joriy etilgan ta’limning davlat standartlari, umumiy o‘rta ta’limning yangi dasturlarini muvaffaqiyatli hal etilishi kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarning sifatiga ham bog‘liq. Bo‘lg‘usi kadrlarni kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kichik mutaxassis jamiyat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirish kafolatidir.

Ayniqsa, bugungi kunda kasb-hunar kolleji o‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berishda o‘tmish madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan,

ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ajdodlar ma'naviy xazinalaridan, ya'ni xalq og'zaki ijodidan o'rinli va unumli foydalanish, kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Respublika kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish jarayonini yanada samarali amalga oshirishni ta'minlovchi quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar aniqlandi va amalga oshirildi.

1. Kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarning sifatini oshirishda ajdodlar ma'naviy va ma'rifiy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodidan darslarda keng foydalanish muhim o'rin tutadi.

2. Muammoni o'rganish va tahlil qilish asosida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar kollejlari amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha o'rganilayotgan o'quv fanlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish tuzilmasi ishlab chiqildi va ularning mazmuni keltirildi.

3. Kasb-hunar kollejlari amaliy bezak san'ati darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish natijasida o'quvchilarning dunyoqarashi shakllandi, ota-onasiga, do'stlariga, ustoziga, tabiatga bo'lgan qiziqishi ortganligi aniqlandi.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida rivoyatlardan noan'anaviy uslubda, ya'ni seminar-trening ko'rinishida (jonli ijro) o'qitish texnologiyasi ishlab chiqildi (3-ilova).

5. Ajdodlar ma'naviy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodini ilmiy o'rganib, to'plab, tahlil qilib, ulardan darslarda foydalanish tuzilmasi ishlab chiqildi hamda tajribada sinab ko'rildi. Ilg'or o'qituvchilar tajribalariga suyanan holda metodik tavsiyanoma yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1992. - 46 b.
2. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. –T.: SHarq, 1997. - 64 b.
3. O‘zbekiston milliy istiqlol mafkurasi. –T.:O‘zbekiston, 1993. -109 b.
4. YUldashev X.A. Ustoz va shogird odobi mavzusidagi o‘quv tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish metodikasi. /Metodik qo‘llanma. -T.: O‘MKXTKMO va UQTI, 2005. - 71 b.

Urdu Pedagogika fakulteti Mehnat ta'limi yo'nalishi
143-guruh talabasi Madrimov Elyorning
Kasb hunar o'rganish jarayonida "Ustoz shogird odobi
an'alaridan foydalanishning shakli, vosita va me'todlari"
mavzusidagi referatiga

TAQRIZ

Men mehnat ta'limi yo'nalishi talabasi Madrimov Elyor kasb hunar o'rganish jarayonida "Ustoz shogird odobi" an'alaridan foydalanishning shakli, vosita va me'todlari. mavzusidagi referati bilan yaqindan tanishib chiqdim.

Ushbu referatda yoshlarning O'quvchilarni «Ustoz-shogird odobi» an'alarini asosida shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosdir. Kasb-hunar kollejlarida «Ustoz-shogird odobi» an'alarini o'quvchilar ongiga singdirish uchun xalq og'zaki ijodi (rivoyat, maqol, hikmat, hikoya, doston kabi) namunalaridan foydalaniladi. Mazkur foydalanish, albatta, dars hamda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida amalga oshiriladi.

Bu referatda «Ustoz-shogird odobi» an'alarini yoshlarning tarbiyasini oshirish jarayonining xususiyatlari va tavsilotlari asoslari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ushbu referat mavzusi aniq va to'liq yoritilgan. Men bu referatni
ZIYONET tarmog'iga tavsiya qilaman

Mehnat ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi


J.K. Tojiyev

KADRLAR BO'LIM BOSHCHISI

UrDU Pedagogika fakulteti Mehnat ta'limi yo'nalishi 143-guruh
talabasi Madrimov Elyorning Kasb hunar o'rganish jarayonida
“Ustoz shogird odobi an'analaridan foydalanishning shakli, vosita va
me'todlari” mavzusidagi referatiga

TAQRIZ

Men mehnat ta'limi yo'nalishi talabasi Madrimov Elyorning kasb hunar o'rganish jarayonida “Ustoz shogird odobi an'analaridan foydalanishning shakli, vosita va me'todlari” mavzusidagi referati bilan yaqindan tanishib chiqdim.

Ushbu referatda o'quvchi yoshlar ijodini «Ustoz-shogird odobi» an'analari asosida shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos ekanligi izohlab berilgan. To'garak mshg'ulotlarida va kasb-hunar kollejlarda dars jarayonlarida «Ustoz-shogird odobi» an'alarini o'quvchilar ongiga singdirish uchun xalq og'zaki ijodi (rivoyat, maqol, hikmat, hikoya, doston kabi) namunalaridan foydalaniladi.

Shu bilan birga referatda «Ustoz-shogird odobi» an'analari yoshlarning tarbiyasini shakllantirish jarayonining xususiyatlari va tavsilotlari asoslari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ushbu referat mavzusi aniq va to'liq yoritilgan va ushbu referatni “Ziyonet” internet tarmog'iga joylashtirishni tavsiya qilaman.

Urganch shaxar maishiy xizmat ko'rsatish
Kasb-hunar kolleji direktori



SH. Ro'zmetova.